

Uzbekistan Airways London, Frankfurt va Riga shaharlariga aviaqatnovlar sonini oshirmoqda

2023 15 Mart

2023-yilning 26-martidan boshlab Uzbekistan Airways Toshkentdan London, Frankfurt va Riga shaharlariga parvoz qiluvchi aviaqatnovlar sonini oshirmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad yo'lovchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish, sayyohlar oqimini ko'paytirishdir.

26-martdan boshlab Toshkent – London – Toshkent yo'nalishi bo'yicha parvozlari soni haftasiga 2 martadan 3 martagacha oshiriladi. Seshanba va juma kunlaridan tashqari, yakshanba kunlari ham parvozlari bajariladi.

Uzbekistan Airways 29-martdan boshlab esa Toshkent – Frankfurt – Toshkent yo'nalishi bo'yicha parvozlari sonini haftasiga 3 martadan 4 martaga ko'paytiradi. Bundan buyon Frankfurtga to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlari dushanba, chorshanba, payshanba va shanba kunlari amalga oshiriladi.

Shuningdek, 29-martdan Toshkent – Riga – Toshkent yo'nalishi bo'yicha parvozlari soni haftasiga 3 martagacha oshirilmoqda. Yo'lovchilar to'g'ridan-to'g'ri aviatashuvlarda dushanba, chorshanba va juma kunlari sayohat qilishlari mumkin.

Shu bilan birga, Uzbekistan Airways yozgi parvozlari jadvaliga o'tishi munosabati bilan 28-martdan Toshkent – Milan – Toshkent, 31-martdan boshlab esa Toshkent – Parij – Toshkent yo'nalishlarida aviaqatnovlarni yo'lga qo'yayotganini ma'lum qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti orqali 3% chegirma bilan, shuningdek, "UzAirways" mobil ilovasi, Uzbekistan Airways Sales orqali yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilishingiz mumkin.